

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING IQTISODIY MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11582943>

Egamberdiyeva Lobaroy Olimjonovna

Farg'ona Davlat Universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Mustaqil O'zbekiston Respublikasida zamonaviy iqtisodiy madaniyat ming yillikni rivojlantirishning maqsadli mazmuni va global aspektlarini aks ettiruvchivazifalar bilan o'zaro munosabatdadir. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini iqtisodiy madaniyatini yuksaltirish va uni rivojlantirish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, kompleks yondashuv, iqtisodiy madaniyat, iqtisodiyot rivojlanish ko'rsatkichlari, madaniyat, fasilitatsion ta'lim.*

Hozirgi kunda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ ta'lim jarayonlarini tashkil etishga tayyorlash, kompleks yondashuv asosida pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. SHuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish, ta'limni axborotlashtirish sharoitida iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish sifatini oshirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish masalalarini tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa kredit-modul tizimi asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishga doir elektiv kurslar mazmunini takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilarda tadbirkorlik va ishbilarmonlik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Respublikamizda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish, umumta'lim fanlarini xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'qitish bo'yicha kasbiy kompetentligini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosati izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, innovatsion iqtisodiyot rivojlanish ko'rsatkichlariga muvofiq pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlashning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etishga doir keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish" kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishning samarali usullarini ishlab chiqish, kompleks asosida pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarini o'quvchilarning iqtisodiy savodxonligini

shakllantirishga tayyorlashning pedagogik tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Yurtimizdagi o'zgarishlarni bosh yo'nalishlaridan biri iqtisodiy sohadagi islohotlardir. Iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda kishilarimiz madaniyatidagi o'zgarishlar muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy o'sish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq, chunki madaniyat taraqqiyotni yetaklovchi omildir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining iqtisodiy madaniyati, uning tuzilishini pedagogik-psixologik nuqtai nazardan tadqiq etish zarur.

Bo'lajak mutaxassislarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish haqida gap ketganda, eng avvalo, "madaniyat" tushunchasining mohiyatini aniqlab olish zarur. Madaniyat tushunchasi pedagog-psixolog olimlar tomondan quyidagicha talqin qilingan:

Madaniyat – bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuigina bo'lib qolmay, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya'ni jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig'indisi madaniyatda gavdalanadi.

Madaniyat — jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. Madaniyat tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari (masalan, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo'llaniladi. Tor ma'noda madaniyat atamasi kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi.

Madaniyat inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko'rsatkichidir. Shu bilan birga, insonning o'zi ham, o'zgarmas, madaniyat mahsulidir. Hatto aytish mumkinki, madaniy muhit qanday bo'lsa, inson ham shunday shakllanadi"

Iqtisodiy madaniyat - iqtisodiy bilimlar, tijorat yuritish bilimi va ko'nikmalarining rivojlanganligi, iqtisodiy tahlil ko'nikmalarini, iqtisodiy tafakkur va o'ziga xos ijtimoiy sezgilarni (mulk egaligi hissini) o'zlashtirish darajasini ta'riflovchi bilimlar, tashabbuskorlik va tadbirkorlik ko'nikmalari, ijtimoiy sezgilarni insonning amaliy faoliyatida ro'yobga chiqarish darajasini ochib beruvchi madaniyat turidir.

Iqtisodiy madaniyatli shaxs deganda - iqtisodiy jarayonlarni oldindan ko'ra biladigan, tadbirkor, halol va haromni ajrata oladigan kishilar tushuniladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishda fasilitatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Fasilitatsion texnologiyaning mohiyati hamkorlikni vujudga keltirib muayyan muammoni kichik guruhlarda xal etishda fasilitator (lider) va kichik guruh talabalarini faolligini oshirishdir. Fasilitatsion texnologiyada bahs, munozara, fikrlar almashinuvi, umumiy yechimga kelish va qaror qabul qilish (fasilitatsiya jarayoni) yuz beradi. jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy-ilmiy dunyoqarashi rivojlanadi.

Muammoli vaziyatlarni samarali hal etish maqsadida kichik guruh faoliyatining vitagen, refleksiv ko'rinishi bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur jarayonda o'z hayotiy tajribalari, g'oyalari, avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalardan foydalanib aniq qaror qabul qilishga erishadi. Fasilitatsion texnologiyadan foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy jihatdan rivojlantirib, kelgusida mustaqil hayot va kasbiy faoliyatidagi muammolarni hal etishga o'rgatadi hamda tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlaydi.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni fasilitatsion ta'limga tayyorlash, an'anaviy va fasilitatsion ta'lim modellarining qiyosiy tavsifi, pedagogik fasilitatsiya vositasida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasining ishlab chiqilishi talabalar iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishda samarali natijalarga olib keladi.

Fasilitatsiya inglizcha facilitates so'zidan olingan bo'lib, "osonlashtirish" degan ma'noni bildiradi. U mojaroli manfaatlarni muvofiqlashtirishga mo'ljallangan bo'lib, faoliyatning haqiqiy rejasini ishlab chiqish bilan yakunlanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarda iqtisodiy madaniyatni shakllantirishdamaktabdagi o'quv predmetlari asosiy omil ekanligini unutmasligi kerak. Turli fanlardagi mavzular, masala va misollar, topshiriqlar orqali ham boshlang'ich sinf o'qituvchisida ham o'quvchilarda iqtisodiy madaniyat shakllanib boradi. Bolalarni hayotda iqtisodiy munosabatlarni tushunishga, ular voyaga yetganlarida ko'radigan qiyinchilik va muammolarni tushunishga tayyorlash zarur.

Bolalarni tejamkorlik va iqtisod qilishga o'rgatish chindan ham murakkab. Bunday uquvga, albatta osonlikcha erishilmaydi. Chunki tejamkorlik shunchaki yirtmaslik, bulg'amaslik, tashlab yubormaslik, sindirmaslik odati emas. Bu avvalo, axloqiy fazilat, ma'naviy madaniyat ko'rsatkichidir.

Shunday qilib, iqtisodiy bilimlarni egallash va o'zlashtirish iqtisodiy madaniyatdan ma'naviyatga, bilimdan e'tiqodga, undan esa, o'z navbatida, real amaliy harakatlar sari yuksalishni nazarda tutadi. Ko'rib turganimizdek, iqtisodiy madaniyat va tarbiya tuzilishi o'z tarkibiy qismlariga va aloqalarining tipiga ko'ra bir-biriga juda yaqin bo'lib, bu ularning hamkorligidan dalolat beradi.

Insonning iqtisodiy madaniyatini shakllantirishning yakuniy natijalaridan kelib chiqib, iqtisodiy jihatdan madaniyatli shaxs – uning shakllantirish mezonlari bilan belgilanganligida ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, tanqidiy iqtisodiy fikrlashni mavjudligida. Insonning tanqidiy iqtisodiy fikrlash asoslari iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy jarayonlar va o'z mamlakatlarining iqtisodiy tizimida va boshqa davlatlarning iqtisodiy tizimlarining asosiy mazmuni o'rtasidagi mohiyatini tushunishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

2. Aliqulova M.M. Innovatsion pedagogika. Uslubiy qo'llanma.–T.: "TDIU nashriyoti", 2012. – B. 14, 54.

3. Boymurodova G.T. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy-shaxsiy tayyorgarligining texnologik tizimi: Ped.fan.nom. ... diss. – T.: 2009.–B. 154.

4. Kamolova N.Q. O'quvchi-yoshlarda iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari (pedagogika kollejlari misolida): Ped.fan.nom. ... diss. – T.: 2005. – B. 148.

5. Maqsadova M.S. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligining psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan. nom. diss. avtoreferati. TDPU 2012. – B. 145-155.